

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ABBOSIYLAR XALIFALIGINING MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY INQIROZI: ROFE IBN LAYS QO'ZG'OLONI VA SOMONIYLAR YUKSALISHINING TARIXIY OMILLARI

Umarov Baxtishod Baxridin o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: umarovbaxtishod95@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-0501-3789>

Annotatsiya.

Maqolada IX asr boshlarida Abbosiylar xalifaligining Movarounnahrdagi siyosiy mavqei zaiflashuvi, Rofe ibn Lays qo'zg'olonining sabablari va oqibatlarini, mahalliy zodagonlarning siyosiy faollashuvi hamda Somoniylar sulolasi yuksalishining tarixiy omillari tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, Abbosiylar xalifaligi, Rofe ibn Lays qo'zg'oloni, siyosiy inqiroz, ijtimoiy hayot, Somoniylar sulolasi, mahalliy zodagonlar, siyosiy jarayonlar.

ПОЛИТИЧЕСКИЙ КРИЗИС АББАСИДСКОГО ХАЛИФАТА В МАВЕРАННАХРЕ: ВОССТАНИЕ РАФИ ИБН ЛАЙСА И ИСТОРИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВОЗВЫШЕНИЯ САМАНИДОВ

Умаров Бахтишод Бахридин угли

Азиатский международный университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье на основе исторических источников и научных исследований анализируются ослабление политических позиций Аббасидского халифата в Мавераннахре в начале IX века, причины и последствия восстания Рафи ибн Лейса, активизация политической деятельности местной знати, а также исторические факторы возвышения династии Саманидов.

Ключевые слова: Мавераннахр, Аббасидский халифат, восстание Рафи ибн Лейса, политический кризис, общественная жизнь, династия Саманидов, местная знать, политические процессы.

THE POLITICAL CRISIS OF THE ABBASID CALIPHATE IN TRANSOXIANA: THE REVOLT OF RAFI IBN LAYTH AND THE HISTORICAL FACTORS BEHIND THE RISE OF THE SAMANIDS

Umarov Baxtishod Baxridin o'g'li

Asia International University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

The article analyzes the weakening of the political position of the Abbasid Caliphate in Transoxiana in the early ninth century, the causes and consequences of the revolt of Rafi ibn al-Layth, the growing political activity of the local nobility, and the historical factors that contributed to the rise of the Samanid dynasty. The analysis is based on historical sources and scholarly research.

Keywords: Transoxiana, Abbasid Caliphate, revolt of Rafi ibn al-Layth, political crisis, social life, Samanid dynasty, local nobility, political processes.

Kirish. IX asr boshlariga kelib Abbosiylar xalifaligining Movarounnahrdagi siyosiy mavqeyi bir qaraganda barqaror ko'ringan bo'lsa-da, mintaqadagi markaziy hokimiyatga nisbatan norozilik kayfiyati kuchayib borayotgan edi. Soliq siyosati, mahalliy aholi va zodagonlar manfaatlarini bilan markaziy boshqaruv o'rtasidagi ziddiyatlar, viloyat hokimlarining o'zboshimchaligi hamda Horun ar-Rashid hukmronligining so'nggi yillarida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik Movarounnahrdagi yangi kuchlar nisbatining shakllanishiga zamin yaratdi. Ana shunday murakkab siyosiy sharoitda Samarqandda boshlangan Rofe ibn Lays qo'zg'oloni oddiy mahalliy norozilik sifatida emas, balki Abbosiylarning sharqiy viloyatlar ustidan nazoratini jiddiy sinovdan o'tkazgan yirik siyosiy harakatga aylanadi. Qo'zg'olonning bostirilishi esa markaziy hokimiyatning mintaqadagi tayanch kuchlarini qayta belgilash zaruratini yuzaga keltirib, mahalliy nufuzli sulolalarning siyosiy mavqeyini oshirdi. Xususan, Somonxudot avlodlarining xalifalik hokimiyatini qo'llab-quvvatlashi va Movarounnahrdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi ularning keyinchalik Samarqand, Farg'ona, Shosh va boshqa hududlarda boshqaruv mavqeyiga ega bo'lishiga muhim siyosiy zamin yaratadi. Shu jihatdan Rofe ibn Lays qo'zg'oloni Abbosiylar hukmronligining mintaqadagi ichki zaifliklarini namoyon etgan voqea bo'lish bilan birga, Somoniylarning siyosiy yuksalishiga olib kelgan tarixiy jarayonlarni anglashda ham muhim burilish nuqtalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Rofe ibn Lays qo'zg'oloni va IX asr boshlarida Movarounnahrdagi siyosiy jarayonlarni yoritishda birlamchi manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, at-Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" asarida Horun ar-Rashid

hukmronligining so'nggi yillari, xalifalikning sharqiy viloyatlaridagi siyosiy vaziyat va Rofe ibn Lays harakati haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Abu Hanifa ad-Dinavariyning "Kitab al-axbor at-tivol", Gardiziyning "Zayn al-axbor", Ibn al-Asirning "Al-Komil fi-t-tarix" hamda Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarlari esa Movarounnahrda mahalliy siyosiy kuchlar, qo'zg'olonning hududiy ko'lami va Somonxudot avlodlarining keyingi siyosiy mavqeyi masalalarini aniqlashtirish imkonini beradi. Muammoning tarixshunoslik jihatlarini V. V. Bartold, C. E. Bosworth, R. Mottahedeh, N. Ne'matov tadqiqotlari asosida qiyosiy o'rganildi. Ushbu asarlarda Abbosiylar ma'muriy tizimi, mahalliy zodagonlar bilan markaziy hokimiyat munosabatlari va Somoniylar siyosiy yuksalishining dastlabki shart-sharoitlari turli ilmiy yondashuvlarda tahlil qilingan.

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, qiyosiy-tarixiy, muammoviy-xronologik va manbashunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi. Birlamchi manbalardagi Rofe ibn Lays qo'zg'oloni, uning sabablari, ishtirokchilari va oqibatlariga oid ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, keyingi davr tarixchilari talqinlari bilan qiyoslandi. Shuningdek, Abbosiylar markaziy hokimiyatining Movarounnahrda siyosiy imkoniyatlari, mahalliy zodagonlarning kuchayishi va Somoniylar vakillarining siyosiy maydonga chiqishi sabab-oqibat aloqalari asosida tahlil qilindi. Bunda Rofe ibn Lays qo'zg'oloni Somoniylar yuksalishining yagona sababi sifatida emas, balki xalifalikning mintaqadagi siyosiy boshqaruv mexanizmlaridagi o'zgarishlarni tezlashtirgan va mahalliy sulolalarning siyosiy mavqeyini oshirishga xizmat qilgan muhim tarixiy omillardan biri sifatida baholandi.

Muhokama va natija

VIII asr o'rtalarida Arab xalifaligida hokimiyat tepasiga kelgan Abbosiylar sulolasi mamlakatning boshqaruv sohasi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, iqtisodiy-ijtimoiy hayotini o'zgartirish maqsadida qator jiddiy islohotlar o'tkazishni boshlab yubordi. Eng muhim islohotlardan biri vazir (ya'ni vazir ul-vuzaro) lavozimining joriy etilishi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi islohot Eron va O'rta Osiyo hududlaridagi aholini tezroq musulmonlashtirish maqsadida ularni huquq jihatdan arablar bilan tenglashtirilganligi bo'ldi. Bu islohot mohiyatan bosib olingan hududda mustahkamroq o'rnashib olish uchun amalga oshirilgan.

Xalifalikning ulkan hududni idora etayotgani, egallangan hududlarda iqtisodiy ahvoldning bir xil darajada emasligi, geografik joylashuvlarning notekisligi, xalqlarning turli til va madaniy taraqqiyot bosqichida ekanligini hisobga olgan holda Abbosiylar xonadoni mahalliy zodagonlarga yanada kengroq imkoniyatlar berish orqali siyosat yuritishga majbur bo'lgan. Boshqaruv sohasidagi islohotlar doirasida ham ularga yuqori mansablar berildi. Masalan, mashhur vazirlar chiqqan dastlabki xonadon asli balxlik, mahalliy zodagonlar xonadoni barmakiylar bo'ldi [6; B. 52]. 750-753-yillarda barmakiylarning ilk yirik namoyandasi Xolid ibn Barmak "devon al-jund" (harbiy devon) va "devon al-xaraj" (moliya devoni)ni boshqargan [10; B. 272; 13; B. 66.], ayrim manbalarda uning vaziri a'zam (vazir ul-vuzaro, bosh vazir) darajasiga ko'tarilganligi haqida ham qaydlar mavjud [2; B. 670.]. Boshqaruv mansablariga oid turli ma'lumotlar bo'lsa-da, xulosa qilish mumkinki, barmakiylar xalifalik saroyidagi yuqori davlat lavozimlarida bo'lgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, VIII asr so'nggi choragida dehqonlarning zulmi, og'ir siyosiy vaziyat, soliqlarning muttasil oshib borishi, amirlar va dehqonlar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib borishi ichki siyosatda salbiy oqibatlarni yuzaga keltira boshladi. Shunday qo'zg'olonlarga 767-yilda Ustod Sis boshchiligida Sharqiy Xurosonda, 776-783-yillarda Muqanna boshchiligida Movarounnahrda, 778-779-yillarda Eronda Qizil bayroqlilar tomonidan ko'tarilgan qo'zg'olonlarni kiritish mumkin. Qo'zg'olonlarni bostirish uchun xalifa Mansur mahalliy hokimlarga o'z hududlarida cheklanmagan hokimiyat taqdim etishga majbur bo'ldi [3; B. 237-242]. Horun ar-Rashid xalifaligining dastlabki yillarida esa Yahyo ibn Xolid al-Barmak vazirlikka ko'tarilib, butun xalifalikni to'rt o'g'li bilan nazorat qildi [5; B. 155]. Xalifa davlat ishlarini yuritishda ularga qarshilik qila olish kuchiga ega emas edi. Shunday bo'lsa-da, barmakiylar o'z mavqeylarini yanada mustahkamlash uchun xalifalik tarkibidagi mahalliy hokimlar, zodagonlar, diniy ulamolar bilan aloqalarni yaxshilab, ularga katta imkoniyatlar berdilar.

VIII asr oxirlarida Ispaniyada Ummaviylar, Marokashda Idrisiylar, g'arbiy Jazoirda Rustamiylar, sharqiy Jazoirda Ag'labiylar, keyinchalik Misr va Suriyada Tuluniylar xalifalik markazida yuz berayotgan ichki nizolardan foydalanib, o'zlarini mustaqil idora eta boshladilar [15; B. 334]. O'rta Osiyoda, xususan, Movarounnahrda ham Xurosondan alohida birlik sifatida mustaqil boshqaruv uchun intilishlar ancha kuchaya boshladi.

IX asr boshlaridan Abbosiylar xalifaligi tanazzulining dastlabki belgilari yaqqol ko'zga tashlana boshlandi [9; B. 5.]. O'rta asr tarixchilarining ko'pchiligi buning asosiy sabablaridan biri sifatida xalifa Horun ar-Rashid tomonidan barmakiylarning hokimiyatdan chetlashtirilganligini keltiradi. Barmakiylarning bosimi ostida ish qilishni istamagan xalifa 803-yil ularning barcha vakillarini qirib tashlashga buyuradi [14; B. 343]. Bu esa VIII asr o'rtalaridan yuqori davlat lavozimlarida bo'lgan [7; B. 18.] va ayniqsa, vazir Yahyo ibn Xolid al-Barmak davrida katta qudratga ega bo'lib, butun xalifalikni o'z nazorati ostiga olgan barmakiylarning, shuningdek, yirik mavqega ega bo'lgan siyosiy elita vakillarining hokimiyatdan chetlashtirilishiga olib keldi. Gardiziyning qayd etishicha, shu voqeadan so'ng mamlakat ishlarida tartibsizliklar paydo bo'lib, ularning oldini oladigan va chora ko'radigan hech kim qolmaydi, davlat xazinasidagi daromadning ahvoli og'irlashadi va Horun ar-Rashid esa qilgan ishidan pushaymon bo'ladi [17; B. 163].

Xalifalik sharqida barmakiylar ag'darilgandan keyingi eng yirik qo'zg'olon 806-yil Samarqandda Rofe ibn Lays boshchiligida ko'tarilib [16; B. 259-260], Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelgan paytdan boshlab, xalifalikning tayanchi bo'lgan Xuroson va Movarounnahrda ham siyosiy mustaqillikka intilish boshlanganligini yaqqol ko'rsatib berdi. Rofe ibn Laysning qo'zg'oloni xalifalikning hududiy yaxlitligiga jiddiy tahdid soldi.

Qo'zg'olonga ummaviylar sulolasi davrida Xuroson noibi bo'lgan Nasr ibn Sayyorning nabirasi Rofe ibn Lays rahbarlik qilib, Ibn Xaldun ma'lumotlariga ko'ra, o'sha davrda Movarounnahrda eng mashhur arab qo'mondoni bo'lgan [9; B. 7.]. Qo'zg'olonning sabablari haqida adabiyotlarda soliqlar miqdorining oshishi va zulmning kuchayishi kabi umumiy ma'lumotlar keltiriladi.

IX–X asr manbalaridagi ayrim ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, masalan, IX asr tarixchisi Ad-Dinavari (taxminan, 815–895) Rofe ibn Lays qo'zg'oloni haqida "Ali ibn Isa Xuroson noibligiga tayinlangandan so'ng, o'zini yomon tuta boshlaydi va Xurosondagi arablarga nisbatan zulmni kuchaytiradi" deb qayd etadi [11; B. 387.]. Tarixchi Xurosondagi arablar deganda, ummaviylar davridagi yuqori lavozimlarda qoldirilgan arab zodagonlarini nazarda tutgan. Gardizi Xuroson noibi katta miqdorda mol talab qildi, Rofe ibn Lays esa bo'ysunishni istamasdan Samarqandda isyon ko'targanligini yozib qoldiradi [17; B. 163.]. Yana bir tarixchi Abu Ali Bal'ami o'z asarida Samarqand aholisi Ali ibn Isa va uning tarafdorlari tomonidan o'tkazilgan zulmga qarshi chiqish uchun Rofe ibn Lays bilan birlashganligini bayon qiladi [18; B. 489.]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu qo'zg'olon soliqlar oshishi yoki zulmga qarshi emas, balki arab zodagonlarining shaxsiy adovatlar va ularning o'lkada yuritgan zulmkor siyosatiga qarshi ko'tarilgan degan xulosaga kelsak, to'g'ri bo'ladi.

Rofe ibn Lays qo'zg'oloni mahalliy aholini shu qadar to'liqlantirib yubordiki, ularga Choch, Farg'ona, Ustrushona, Xo'jand, Buxoro, Xorazm hududlari aholisi, shuningdek, turklar va Tibetdan yordamchi kuchlar kelib qo'shildi. 807-yil Nasaf aholisi Ali ibn Isa zulmiga qarshi kurashish maqsadida Rofe ibn Laysga murojaat qilishdi. Rofe ibn Lays yuborgan qo'shin tomonidan Xuroson noibi Ali ibn Isa o'ldiriladi [4; B. 24.]. 808-yil Samarqand qo'zg'olonchilar qo'lga o'tdi [8; B. 14.]. Bunday yirik qo'zg'olon butun xalifalikni larzaga keltirdi. Horun ar-Rashid Samarqand egallanganligidan xabar topib, Xarsama ibn A'yanni Rofe ibn Laysga qarshi yuborib, o'zi Xuroson tomon yurishni boshlaydi, ammo 809-yil Tus shahrida vafot etadi. Xalifalik taxtiga Amin o'tirib, Xuroson va Movarounnahr Ma'mun qo'lida qoladi. Ma'mun mamlakat yaxlitligini saqlab qolish yo'lida qattiq harakat qilib, mahalliy hokimlarga yanada ko'proq vakolatlar beradi. Shu davrda Movarounnahr siyosat maydoniga Somonxudot xonadoni chiqa boshladi.

Xarsama ibn A'yanning Samarqandga hujumi kutilgan natija bermaganligidan xabar topgan Ma'mun somoniylardan Asadning o'g'illariga xat yozib, yordam so'raydi. Narshaxiyni yozishicha, somoniylarning aralashuvi bilan Rofe ibn Lays va Xarsama ibn A'yan o'rtasida quda-andachilik o'rnatilib, sulh tuziladi [1; B. 69.]. Tabariy, Ibn Xaldun, Gardiziy va boshqa tarixchilar asarlarida qo'zg'olonning yakuni borasida turli tarixiy voqealar keltirilsa-da, somoniylar ishtiroki qisman ta'kidlanadi.

Rofe ibn Lays qo'zg'oloni Movarounnahr va unga tutash hududlar siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsatdi. Xalifalik markazi uchun Movarounnahr, Xorazm va Farg'ona hududlaridagi qadimdan katta mavqega ega bo'lgan ayrim hokimlar va zodagonlar ishonchsiz ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi va bu hududlarda somoniylar xonadoni vakillarining ta'siri oshirildi. Xalifalik taxtiga ko'tarilgan Ma'mun Xuroson noibi etib G'asson ibn Abbod (ba'zi asarlarda Ubbod tarzida ham berilgan)ni tayinladi va unga Asadning o'g'illariga yerlar berishni buyurdi [1; B. 69.]. Bu xalifaning somoniylar xonadoniga bo'lgan hurmati namunasi edi. Ma'mun Bag'doddagi vaziyat to'liq qo'lga o'tmaguncha Marvdan turib xalifalikni idora etdi. Fadl ibn Sahl, Tohir ibn Husayn va Asadning o'g'illari esa unga yaqindan yordam beradi. Buning evaziga qo'zg'olon bostirilganidan deyarli o'n yil o'tib, ya'ni 819-yil Nuh Samarqand hokimi, Ahmad Farg'ona hokimi, Yahyo Shosh va Ustrushona hokimi va Ilyos Hirot hokimi etib tayinlandi [4; B. 65.; 7; B. 19.; 12; B. 111.]. Shunday qilib, somoniylar Movarounnahr boshqaruvi tepasiga keldi.

Xulosa.

Rofe ibn Lays qo'zg'oloni Movarounnahr tarixida xalifalik markaziy hokimiyati ta'sirining zaiflashuvi va mahalliy siyosiy kuchlar mavqeyining ortishida muhim bosqich bo'ldi. Qo'zg'olon natijasida xalifalik mintaqadagi ma'muriy-siyosiy nazoratini avvalgidek saqlab qola olmadi, soliq siyosatida muayyan yengilliklar qilishga majbur bo'ldi hamda mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan nisbiy ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Eng muhimi, bu jarayon Somoniylar kabi mahalliy sulolalarning siyosiy maydonga chiqishi va Movarounnahrda mustaqil boshqaruv an'analari kuchayishiga zamin yaratdi. Shu jihatdan, mazkur qo'zg'olon nafaqat xalifalik hukmronligiga qarshi norozilik harakati, balki mintaqaning keyingi siyosiy mustaqillashuv jarayonlarini tezlashtirgan muhim tarixiy omil sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: "Sharq mash'ali" jurnaliga ilova, "Sharq bayoz", 1993. – 126 b. ([CiNii](#)) URL: [CiNii bibliografik kartochkasi](#)
2. Бартольд В. В. Бармакиды // Сочинения. – Т. VI: Работы по истории ислама и Арабского халифата. – Москва: Наука, 1966. – С. 669–674. ([Государственная библиотека для незрячих](#)) URL: [Электронная библиографическая запись](#)
3. Беляев Е. А. Арабы, ислам и Арабский халифат в раннее средневековье. – 2-е изд. – Москва: Наука, 1966. – 280 с. ([Search RSL](#)) URL: [Российская государственная библиотека](#)
4. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих (Полный свод истории): избранные отрывки / пер. с араб. яз., примеч. и коммент. П. Г. Булгакова; доп. к переводу, примеч., коммент., введ. и указ. Ш. С. Камолиддина. – Ташкент-Цюрих, 2005. – 595 с. – ISBN 978-5-903184-11-1. ([Studmed](#)) URL: [Электронная версия и описание](#)
5. Ирмияева Т. Ю. История мусульманского мира: от Халифата до Блистательной Порты. – Челябинск: Урал LTD, 2000. – 349, [1] с. – ISBN 5-8029-0122-5. ([Библиотека ОМГУ](#)) URL: [Каталог библиотеки ОМГУ](#)
6. Миклухо-Маклай Н. Д. Описание таджикских и персидских рукописей Института востоковедения. Вып. 2: Биографические сочинения. – Москва: Издательство восточной литературы, 1961. – 168 с. ([РусНЭБ](#)) URL: [Национальная электронная библиотека](#)

7. Неъматов Н. Давлати Сомониён: тоҷикон дар асрҳои IX–X. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 304 с. ([CiNii Research](#)) URL: [Электронная версия книги](#)
8. Рыжов К. В. Все монархи мира. Мусульманский Восток VII–XV вв. – Москва: Вече, 2004. – ISBN 5-94538-301-5. ([Энциклопедия](#)) URL: [Национальная электронная библиотека](#)
9. Хамза Камол. Восстание 806–810 гг. в Самарканде // Историк (Муаррих). – Душанбе, 2023. – № 2 (34). – С. 5–14. Jurnal mundarijasida maqola 5-betdan, keyingi maqola esa 15-betdan boshlanishi ko'rsatilgan. URL: [Jurnalning to'liq PDF soni](#)
10. Bosworth C. E. Abū Ḥafṣ 'Umar al-Kirmānī and the Rise of the Barmakids // Bulletin of the School of Oriental and African Studies. – 1994. – Vol. 57, No. 2. – P. 268–282. – DOI: 10.1017/S0041977X0002485X. ([Кембридж](#)) URL: [Cambridge Core](#)
11. al-Dīnawarī, Abū Ḥanīfa. Kitāb al-Akhbār al-Ṭiwāl / ed. by V. Guirgass. – Leiden: E. J. Brill, 1888. ([WorldCat](#)) URL: [WorldCat bibliografik yozuvi](#)
12. Meirison M., Muzakki M. H. Samanid Dynasty Development, Government Administration, Race and Science // Journal of Islamic Studies and Humanities. – 2021. – Vol. 6, No. 2. – P. 111–119. – DOI: 10.21580/jish.v6i2.8545. ([Walisongo Journal](#)) URL: [Jurnalning rasmiy sahifasi](#)
13. Mottahedeh R. The 'Abbāsīd Caliphate in Iran // The Cambridge History of Iran. Vol. IV: The Period from the Arab Invasion to the Saljuqs / ed. by R. N. Frye. – Cambridge: Cambridge University Press, 1975. – P. 57–89. – DOI: 10.1017/CHOL9780521200936.003. ([Кембридж](#)) URL: [Cambridge Core](#)
14. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. 1-kitob. – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2019. – 634 b. – ISBN 978-9943-4887-6-2. ([Активация Билета ТКТИ](#)) URL: [ТКТИ elektron kutubxonasi katalogi](#)
15. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. I kitob. – Toshkent: "Donishmand ziyosi" MChJ, 2021. – 624 b. – ISBN 978-9943-6445-3-3. ([arm.uzmmsi.uz](#)) URL: [Elektron kutubxona yozuvi](#)
16. al-Ṭabarī. The History of al-Ṭabarī. Vol. XXX: The 'Abbāsīd Caliphate in Equilibrium: The Caliphates of Mūsā al-Hādī and Hārūn al-Rashīd, A.D. 785–809/A.H. 169–193 / transl. and annot. by C. E. Bosworth. – Albany, NY: State University of New York Press, 1989. – 365 p. – ISBN 978-0-88706-564-4. ([Google Books](#)) URL: [Google Books bibliografik yozuvi](#)
17. ابوسعید عبدالحی بن ضحاک بن محمود گردیزی. تاریخ گردیزی / به تصحیح، تحشیه و تعلیق عبدالحی حبیبی. – تهران: دنیای کتاب، ۱۳۶۳ [1984/1985]. – 733 ص. ([مهذرو](#)) URL: [Bibliografik nashr ma'lumotlari](#)
18. Умаров Б. Б., Гойибов Б. С. Некоторые аспекты ослабления влияния Аббасидского халифата в Мавераннахре // XXXVIII Международные Плехановские чтения, 27–28 марта 2025 г.: сборник статей аспирантов и молодых ученых. – Москва: Изд-во РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2025. – С. 486–492. ([Pea](#)) URL: [РЭУ им. Г. В. Плеханова — konferensiyaning rasmiy sahifasi](#)